

O'ZBEK TILI TARIXI FANINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH

Malikova Shahlo Keldibek qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.

E-mail: ibrohimovashahlo41@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20401147>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbek tili tarixi fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish masalalari tahlil qilinadi. Fan mashg'ulotlarida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, talabalarning tarixiy-lisoiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy metodlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili tarixi, pedagogik texnologiya, interfaol metod, innovatsion ta'lim, ta'lim samaradorligi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, filologik yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

“O'zbek tili tarixi” fani o'zbek tilining shakllanish bosqichlari, tarixiy taraqqiyoti hamda qadimgi yozma manbalarni o'rganishga xizmat qiluvchi muhim fanlardan biridir. “...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgani” [Mirziyoyev, 2017, 1] fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mazkur fan doirasida qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili oid materiallar o'rganiladi. Biroq tarixiy matnlarning murakkabligi ayrim hollarda talabalarda mavzuni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli dars jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

“O'zbek adabiy tili tarixi” predmeti yozma yodgorliklar tiliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganadi. Shuningdek, adabiy tilni takomillashtirishda ijtimoiy-tarixiy voqealarning ta'siri masalasi, adabiy til uslublari bilan tanishtiradi. Binobarin, o'zbek adabiy tilining qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari “O'zbek adabiy tili tarixi” predmetining obyekti sanaladi. O'zbek adabiy tili tarixi o'zbek adabiy tilining mohiyati, uning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari to'g'risidagi fan sifatida XX asr boshlarida yuzaga kelgan. [Abdushukurov, 2021,179].

“Moslashtirish” metodi O'zbek tili tarixi fanini o'qitishda samarali interfaol usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali talabalar qadimgi turkiy so'zlar va ularning ma'nolarini o'zaro bog'lash asosida mavzuni osonroq o'zlashtiradilar.

Metod tarixiy leksikani o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarning mantiqiy fikrlashi, xotirasi va mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, dars jarayonida faollikni oshirib, mavzuga qiziqishni kuchaytiradi.

№	So‘z	Harf	Ma’nosi	№	So‘z	Harf	Ma’nosi
1	Erat	A	Tangri, xudo	1	Lu	A	Boyliklar, xazinalar
2	Teva	B	Bayroqdor	2	Burxan	B	Musiqqa asbobi
3	Tug‘chi	C	Do‘st, oshna	3	Tänsi	C	Xonimlar
4	Temur	D	Askar, armiya	4	Tutuq	D	Budda
5	Tengri	E	Tuya	5	Čañ	E	Beklar
6	Tergi	F	Erkak kishi	6	Ağliqlar	F	O‘ziga keltirdilar
7	Tetig	G	Temir, metal	7	Tapig‘čilar	G	Suyaklar
8	Eran	H	Dasturxon	8	Söñüklär	H	Botirlar
9	To‘nga	I	Aqlli, tetik	9	Beglär	I	Xizmatchilar
10	To‘nga Alp Er	J	Arslon, bahodir	10	Qunčuylar	J	Shahzodalar
11	To‘q	K	Afrosiyob	11	Ögläntürdilär	K	Ajdar
12	Esh	L	Bo‘lak, ulush	12	Ämräk öküklärim	L	Erlar
13	Er	M	Ayol, xotin	13	Tigit	M	Osmon o‘g‘li
14	Echi	N	Qurol-aslaha	14	Alpağut	N	Unvon nomi
15	To‘lum	O	Inson, odam	15	Ärän	O	Sevimli bolalarim

Rolli o‘yin metodi. O‘zbek tili tarixi fanini o‘qitishda “Rolli o‘yin” metodidan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metod orqali talabalar tarixiy shaxslar obraziga kirib, o‘sha davrning til muhiti, adabiy jarayoni hamda ilmiy qarashlarini amaliy tarzda namoyon etadilar. Ushbu metod nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarning nutq madaniyati, ijodiy tafakkuri va sahna madaniyatini ham rivojlantiradi. Dars jarayonida talabalar guruhlariga bo‘linib, har bir guruhga ma’lum tarixiy shaxs obrazi topshiriladi.

Jumladan, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy hamda Abdurauf Fitrat kabi tarixiy siymolar rollari talabalarga taqsimlanadi. Talabalar ushbu shaxslarning hayoti va ijodini o‘rganib, ularning asarlaridan parchalar, monologlar yoki g‘azallarni ifodali tarzda o‘qib beradilar.

Masalan, Mahmud Koshg‘ariy rolidagi talaba turkiy tillarning boyligi haqida fikr yuritisa, Yusuf Xos Hojib obrazidagi talaba “Qutadg‘u bilig” asaridan hikmatli baytlarni o‘qiydi.

Alisher Navoiy rolini ijro etgan talaba esa g'azallaridan namunalar keltirib, eski o'zbek adabiy tilining nafisligini namoyish etadi. Fitrat obrazidagi talaba esa jadidchilik harakati, milliy til va ma'rifat haqidagi qarashlarini monolog shaklida ifodalaydi. Bunday sahnalashtirilgan dars jarayoni talabalarda tarixiy manbalarga nisbatan qiziqishni oshiradi hamda mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar nutqini jonli tarzda ijro etish orqali talabalar o'sha davr ruhiyatini his qilish imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, dars davomida "intervyu", "ilmiy suhbat" yoki "bahs-munozara" elementlaridan foydalanish talabalarning erkin fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. "Rolli o'yin" metodining yana bir muhim jihati shundaki, u talabalarni mustaqil izlanishga undaydi. Talabalar tarixiy shaxslarning asarlari bilan ishlash, ulardagi til xususiyatlarini tahlil qilish hamda badiiy matnni ifodali o'qish orqali ilmiy va ijodiy kompetensiyalarni egallaydilar. Natijada dars jarayoni an'anaviy ma'ruzadan farqli ravishda interaktiv va qiziqarli tus oladi.

“Nuqtalar o'rnini to'ldirish” metodi. O'zbek tili tarixi fanini o'qitishda “Nuqtalar o'rnini to'ldirish” usuli talabalarning tarixiy-lisoniy bilimlarini mustahkamlash, matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda nazariy ma'lumotlarni amaliy qo'llashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul orqali talabalar tushirib qoldirilgan termin, grammatik shakl va til birliklarini matn mazmuniga tayangan holda tiklaydilar. Natijada ularda mantiqiy fikrlash, tarixiy til hodisalarini tahlil qilish va qiyosiy xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Qadimgi turkiy til materiallari asosida quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- Qadimgi turkiy tilda _____ qonuni asosiy fonetik qonuniyat hisoblangan.
- So'z tarkibidagi tovushlarning hamda qo'shimchalarning o'zak bilan talaffuz jihatdan uyg'unlashuvi _____ deyiladi.
- Qadimgi turkiy til lug'at boyligida daryo nomlarini bildiruvchi _____ lar ham keng qo'llangan.
- Sälājä _____ daryosi, Yinčü ögüz _____ daryosi nomidir.
- V–X asrlardagi yozma obidalarda _____ hodisasi keng uchraydi.
- -an / -än qo'shimchasi orqali _____ ma'nosi ifodalangan.
- Vosita kelishigi qo'shimchasi _____ shakllarida qo'llangan.
- Qanta, anta, bunta kabi birliklar _____ ma'nosidagi ravishlar hisoblanadi.
- Chiqish kelishigi shaklidagi otlar qadimgi turkiy tilda _____ vazifasida ham qo'llangan.
- Qadimgi turkiy tilda äl va bodun so'zlari _____ ma'nosida qo'llangan.
- Kiši va är so'zlari qadimgi turkiy tilda _____ ma'nosini bildirgan.
- Ötükän ärin qışladım gapida vosita kelishigi _____ ma'nosini ifodalagan.

O'zbek tili tarixi fanini o'qitishda mavzulashtirilgan **testlardan** foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini aniqlash, tarixiy-lisoniy hodisalarni qanchalik o'zlashtirganligini baholash hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarixiy til birliklari, eski o'zbek adabiy tili va adabiy manbalar bilan bog'liq mavzularda test topshiriqlari talabalarni diqqat bilan fikrlashga, tahlil qilishga va to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi.

1.«Sulaymoni zamon», «atodin mehribon», «No‘shiravoni odil» kabi sifatlashlar qaysi adib tiliga xos?

- a. Atoiy
- b. Sakkokiy
- c. Alisher Navoiy
- d. Mirzo Ulug‘bek

2. «Muqaddimatul adab» asarining muallifi kim?

- a. Mirza Mehdixon
- b. Zamaxshariy
- c. Fatx Ali Kojariy
- d. Abu Xayyon

3. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan almamag‘, urmamag‘, bermamak so‘zlarining grammatik ma‘nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

- a. Harakat nomining bo‘lishsizlik shakli
- b. Fe‘lning noaniq shakli
- c. Fe‘lning bo‘lishsizlik shakli
- d. So‘z yasovchi affiks

4. Eski o‘zbek adabiy tili jonli tildan nimasi bilan farq qilar edi?

- a. tasviriy va ifoda vositalarining adabiy tilda ko‘p qo‘llanganligi hisobiga
- b. Eski o‘zbek adabiy tili jonli xalq tilidan deyarli farq qilmas edi.
- c. Arabcha, forsha unsurlarning ko‘p qo‘llanishiga ko‘ra
- d. Barchasi to‘g‘ri

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek tili tarixi fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar talabalarining mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati va tarixiy-lisoniy tafakkurini rivojlantiradi.

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshirib, mavzularni oson o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi. –T.: Nodirabegim, 2021.
2. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1995.
3. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982.
4. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент, 2006.